

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN MUXANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

*Qo‘lyozma huquqida*

UDK:

**AXMADALIYEV A’ZAMJON ABDULVOXIDOVICH**

**HUDUD MOLIYAVIY IMKONIYATLARINI  
MAXSUS IQTISODIY ZONALAR FAOLLIGINI TA’MINLASH  
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: iqtisod fanlari  
doktori, prof. D.R.Rustamov**

**Toshkent – 2025**

|                 |                                                                                                                                                        |  |
|-----------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
| <b>KIRISH</b>   |                                                                                                                                                        |  |
| <b>I-BOB</b>    | <b>HUDUD MOLIYAVIY IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....</b>                       |  |
| 1.1.            | Hudud moliyaviy imkoniyatlarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari....              |  |
| 1.2.            | Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini hududiy moliya manfaatlaridan kelib chiqib tashkil etish metodologiyasi.....                                      |  |
| 1.3.            | Xorijiy mamlakatlarda hududlar moliyasini maxsus iqtisodiy zonalar vositasida rivojlantirish tajribalari.....                                          |  |
|                 | 1-bob bo'yicha xulosalar                                                                                                                               |  |
| <b>II-BOB.</b>  | <b>HUDUD MOLIYAVIY IMKONIYATLARINI OSHIRISHDA MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING FAOLIYATI TAHLILI.....</b>                                                  |  |
| 2.1.            | Hudud moliyaviy imkoniyatlarining budget omillarini boshqarish tadbirlari tahlili.....                                                                 |  |
| 2.2.            | Hudud moliyasi va maxsus iqtisodiy zona tashkil qilishning huquqiy va infratuzilmaviy ta'minoti tahlili.....                                           |  |
| 2.3.            | Hudud moliyaviy imkoniyatlarini oshirish maqsadida maxsus iqtisodiy zona faolligini oshirish modeli .....                                              |  |
|                 | 2-bob bo'yicha xulosalar                                                                                                                               |  |
| <b>III-BOB.</b> | <b>HUDUD MOLIYAVIY IMKONIYATLARINI OSHIRISHDA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....</b>                                 |  |
| 3.1.            | Hudud moliyaviy imkoniyatlarini oshirishda maxsus iqtisodiy zonalar optimal soni samarali faoliyatini ta'minlash .....                                 |  |
| 3.2.            | Innovation taraqqiyot talablari asosida hudud moliyaviy imkoniyatlarini rivojlantirishning maxsus iqtisodiy zonalar strategiyasini ishlab chiqish..... |  |
|                 | 3-bob bo'yicha xulosalar                                                                                                                               |  |

|                                           |  |
|-------------------------------------------|--|
| <b>XULOSA</b>                             |  |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> |  |
| <b>ILOVALAR</b>                           |  |

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi.** Jahonda u yoki bu mamlakat, uning hududlari moliyaviy imkoniyatlarini maxsus iqtisodiy zonalar faolligini ta'minlash asosida oshirish bo'yicha tegishli mezon va tavsiyalar xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu mezon talablari asosida davlat maxsus iqtisodiy zonalar taraqqiyotini boshqarish tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Yevropa Ittifoqi iqtisodchi-olimlari va ekspertlari, "iqtisodiy inqirozning "Talofot davri"da hamda iqtisodiy o'sish sur'atlari keskin pasayishi yuz berganda, moliyaviy imkoniyatlarni tiklashga eng katta hissa qo'shuvchi omil, bu – maxsus iqtisodiy zonalar mexanizmi orqali investisiyalar oqimini rag'batlantirish ekanligini ta'kidlamodalar"<sup>1</sup>. Bundan ko'rishimiz mumkin-ki, maxsus iqtisodiy zonalarga investisiyalar jalb qilish orqali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni tashkil etish, yangi ish o'rinlari yaratish va yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish natijasida hududlar moliyaviy imkoniyatlarini oshirishni taqozo etmoqda.

Jahon amaliyotida nufuzli moliya muassasalari hisoblangan Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, BMTning Taraqqiyot dasturlari kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan hududlar moliyaviy imkoniyatlarini maxsus iqtisodiy zonalar faolligini ta'minlash asosida oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni takomillashtirish maqsadida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar nufuzli tadqiqot markazlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, xalqaro standartlarda belgilangan talablar asosida maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish va boshqarish usullarini takomillashtirish imkonini beradi. Bu rivojlangan davlatlar tajribasi asosida zonal siyosatni samarali boshqarish yo'llari tahlilini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish va yanada takomillashtirish uchun muhim hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Petrovic P., Arsic M., Nojkovic A. Increasing public investment can be an effective policy in bad times: Evidence from emerging EU economies. Econ Model. 2020. doi:10.1016/j.econmod.2020.02.004.